

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



	<i>avquest 1-2</i> qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fah/modul uchun ma'sul: Q.A.Mo'yidinov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.b.f.d. (PhD)
9.	Taqrizchilar: A.M.Shofqorov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri, f.f.n., dotsent. M.M.Rahmatov – Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasi dotsenti, f.f.d.

**TILSHUNOSLIK ASOSLARI
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi: 110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi: 60111400 – O'zbek tili va adabiyoti

Chirchiq – 2023

Fan/modul kodi TA105	O'quv yili 2023-2024	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 5		
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	Haftadagi dars soatlari 4
1. Fanning nomi		60		90	150
Tilshunoslik asoslari					
I. Fanning mazmuni.					
Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni tilshunoslik asoslari fanining nazariy masalalari (tushunchalar, nazariyalar va ularning isboti, sohaning ilmiy, amaliy masalalarini tahlil qilish usullari va boshqalar) bilan tanishtirishdan iborat. Ayni paytda u talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga, adabiy tilning nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.					
Fanni o'qitishning vazifasi – talabalarga tilshunoslik asoslari fanining ahamiyati, tillarning kelib chiqishi, til va jamiyat, til va tafakkur, fonetika, fonologiya, orfografiya, orfoepiya, morfologiya, sintaksis, punktuatsiya va uslubiyatning nazariy asoslariga oid bilim va tushunchalar berish, adabiy tilning shevalarga munosabati, o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish va natijada talabalarda og'zaki va yozma adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda fikr ifodalash, grammatik qoidalarga tayanib, o'z fikrini hayotiy misollar orqali asoslash, o'rganganlarini amalda qo'llay olishga o'rgatishdir.					
II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)					
II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:					
1-mavzu. Tilshunoslik asoslari fanining maqsadi, vazifasi va ahamiyati.					
Tilshunoslik asoslari fani, uning mundariyasi, maqsadi, vazifasi va ahamiyati.					
Tilshunoslik asoslari fanining maqsadi va vazifasi talabalarni til falsafasi, til nazariyasi bilan tanishtirish, til hodisalari tahlilidan nazariy xulosalar chiqarishga o'rgatish. Tilning mohiyati. Olimlarning tilshunoslik haqidagi fikrlari bilan tanishish.					
2-mavzu. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Til va jamiyat.					
Tilning paydo bo'lishi haqidagi farazlar: tovushga taqlid farazi, undov farazi, ijtimoiy kelishuvlar va mehnat chaqiriqlari farazi. Tilning paydo bo'lishi haqidagi boshqa ilmiy qarashlar, munosabatlar, tahlillar bilan tanishish. Tillarning o'zaro ta'siri va rivojlanishi. Qabila va urug' tillari. Farqlanish va mujassamlashuv. Milliy tillar taraqqiyoti. Til va jamiyatning o'zaro munosabati. Jamiyatning har bir bo'g'inida tilning o'rni va ahamiyati.					
3-mavzu. Til – eng muhim aloqa vositasi. Til va tafakkur.					

Til va tafakkur. Tilning tafakkur bilan chambarchas bog'liqligi. Til va mantiq birliklarining o'zaro munosabati. Til va nutqiy faoliyat.	4-mavzu. Til va nutq. Til va nutq birliklari Til sathlari. Leksma til birligi, so'z forma nutq birligi sifatida. Til va nutq, uning birliklari haqida dastlabki ma'lumotlar. Leksik ma'no (denotat) va tushuncha (signifikat). Leksma va termin. Semema. Noema. Sema turlari. So'zning semantik strukturalari. 5-mavzu. Fonetika va fonologiya. Nutqning fonetik jihatdan bo'linishi. Nutq tovushlari tilning tabiiy materiali sifatida. Nutq tovushlarining akustikasi va artikulyatsiyasi. Nutq tovushlarining tasnifi. Vokalizm va konsonantizm. Unli tovushlarning tasnifi. Nutqning fonetik bo'laklari: jumla (fraz), takt, bo'g'in, tovush. Enlitika va enkliza hodisasi. Proklitika va prokliza hodisasi. Bo'g'in va uning turlari. Intonatsiyaning vazifasi. Urg'u va uning turlari. Nutq tovushlarining o'zgarishi. Reduksiya. Nutq tovushlarining pozitsion va kombinator o'zgarishlari. Fonema tushunchasi va uning tovushdan farqi. 6-mavzu. Leksikologiya. Leksikologiyaning shakllanishi va takomillashuvi. Leksikologiya. Leksikologiyada o'rganiladigan muammolar. Leksikologiya sohalari. Semasiologiya, onomasiologiya, toponimika, etimologiya, frazeologiya. Tilning lug'aviy birligi va grammatik birligi. 7-mavzu. Leksik ma'no va ularning turlari Leksik ma'noning taraqqiyot yo'llari: metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksional ko'chish. So'z ma'nosining kengayishi va torayishi. Leksik ma'no taraqqiyoti. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Omonimiya. Sinonimiya. Antonimiya. Giponimiya. Partonimiya. Gradunomiya. 8-mavzu. Tilning lug'at tarkibi. Leksikografiya Dialektizmlar. Arxaizmlar. Istorizmlar. Neologizmlar. Tabu va evfemizmlar. Jargon va argolar. Etimologiya va uning turlari. Frazeologiya. Frazeologik iboralarning turlari. Leksikografiya. Lug'at turlari: ensiklopedik lug'at, lingvistik lug'at. Lingvistik lug'at turlari. 9-mavzu. Morfemika. So'z yasashi. Morfologiya. So'z va morfemaning tuzilishi. Morfema tushunchasi. Morfemaning turlari. Affiksalar morfemaning vazifasiga ko'ra turlari. So'z yasovchi affiksalar morfemalar. Affiksalar morfemaning o'rni ko'ra turlari. So'z material strukturalarining o'zgarishi: soddalashtirish, morfologik qayta bo'linish, murakkablashish. So'zlarni turkumlarga ajratish. prinsiplari. So'z
--	--

turkumlarining tasnifi: mustaqil soʻz turkumlari, yordamchi soʻz turkumlari, alohida guruhni tashkil etadigan soʻz turkumlari.

10-mavzu. Tilning grammatik tarkibi. Grammatik kategoriya.

Grammatika va uning boʻlimlari: morfologiya va son kategoriyasi, rod kategoriyasi. Kelishik kategoriyasi, shaxs-son kategoriyasi. Grammatik maʼnoning ifodalanish usullari: sintetik usul, analitik usul. Grammatik forma va kategoriyalar. Grammatik kategoriyalarning turlari.

11-mavzu. Sintaksis. Gap va uning boʻlaklari.

Sintaksis qismlari: sodda gap sintaksisi, qoʻshma gap sintaksisi, murakkab qoʻshma gap sintaksisi. Sintaktik munosabat turlari: predikativ va nopredikativ bogʻlanish. Soʻz birikmasi. Soʻz birikmasining qoʻshma soʻz va gapdan farqi. Soʻz birikmasining turlari: oʻtli birikma, feʼlli birikma, sifati birikma, ravishli birikma. Gap. Gapning tasnifi, ifoda va maqsadiga koʻra turlari. Gapning aktual boʻlinishi.

12-mavzu. Kommunikativ tilshunoslik. Tillarning tipologik tasnifi.

Ijtimoiy tilshunoslik anʼanaviy tilshunoslik yaratgan tipologiyalardan farqlanuvchi til tipologiyasini yaratmoqda. Bunday tipologiya tilning ichki tuzilishini emas, balki uning tashqi sotsial vazifasini aks ettiruvchi sotsiolingvistik tipologiyadir. Bunday tipologiyaga asos qilib, standartlashirish, hayotiylik, tarixiylik va avtonomlik deb nomlanuvchi oʻlchovlar qabul qilingan.

13-mavzu. Yozuv. Alfavit. Orfografiya va uning prinsiplari.

Yozuv va uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati. Til va yozuv. Yozuvning paydo boʻlishi. Yozuv tarixining piktografik, ideografik, fonografik bosqichlari. Alfavit. Hozirgi oʻzbek alfaviti va lotin yozuvi asosidagi oʻzbek alifbosi. Alfavitning oʻzgarishiga sabab boʻladigan omillar. Orfografiya va uning prinsiplari. Yozuv va uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati. Til va yozuv. Yozuvning paydo boʻ. Fonetik prinsip. Morfologik prinsip. Tarixiy-traditsion prinsip. Maxsus yozuv turlari.

14-mavzu. Zamonaviy tilshunoslikning turlari. Oʻzbek tilshunosligining dolzarb masalalari.

Til va xalq, til va jamiyat oʻrtasidagi aloqadorlik masalasi juda qadim zamonlardan anglangan. Bu masala bugungi kunga kelib, yanada dolzarblik kasb etyapti. Tilning jamiyatga, jamiyatning esa tilga taʼsiri bugungi antroposentrik tilshunoslikdagi oʻzak qoidalaridir. Til bilan birgalikda jamiyat, jamiyat bilan birgalikda til rivojlanib, oʻzgarib, takomillashib, tilshunoslikning yangi zamonaviy yoʻnalishlarini (turlari)ni yuzaga kelishiga turki boʻladi. Masalan, sotsiolingvistik, yurilingvistik, kompyuterlingvistikasi, lingvokulturologiya va boshqalar.

15-mavzu. Mustaqillik davrida oʻzbek tilshunosligi taraqqiyoti.

Dunyo. ilm-fanida sotsiolingvistika, etnolingvistika, kognitiv lingvistika, neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi kabi oraliq lingvistik sohalar yuzaga keldi. Ular qatorida muayyan soha tilini oʻrganuvchi lingvistik sohalarining paydo boʻlishi soha nutqining lingvistik xususiyatlarini aniqlashni, ilmiy-nazariy jihatdan chuqur oʻrganishni taqozo qilmoqda.

Mustaqillik davrida oʻzbek tilshunosligida ham sistem leksikologiyani ilmiy oʻrganish, leksik-semantik guruhlar tarkibidagi lugʻaviy birliklarni, ularning oʻzaro mantiqiy munosabatini aniqlashga eʼtibor kuchaydi. Leksemalarning semantik aloqalari xilma-xildir: sinonimiya, antonimiya, giponimiya, partonimiya, gradunomiya, funksionimiya, ierarxonimiya va boshqalar.

III. Amaliy mashgʻulotlar boʻyicha koʻrsatma va tavsiyalar

Amaliy mashgʻulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tilshunoslik fanining oʻrganish sohasi, maqsad va vazifasi. Til va jamiyat.
2. Til va tafakkur. Til – ijtimoiy hodisa.
3. Tilning shakllanishi va rivojlanishi.
4. Til va nutq. Til va nutq birliklari.
5. Til sathlari va uning birliklari.
6. Fonetika va fonologiya.
7. Leksikologiya. Leksik maʼno turlari.
8. Leksikografiya. Tilning lugʻat tarkibi.
9. Morfologiya. Morfemika. Soʻz yasallishi.
10. Tilning grammatik tarkibi. Grammatik kategoriya.
11. Sintaksis. Gap va uning boʻlaklari.
12. Kommunikativ tilshunoslik. Tillarning tipologik tasnifi
13. Yozuv. Alfavit. Orfografiya va uning prinsiplari
14. Oʻzbek tilshunos olimlari va ularning asarlari.
15. Mustaqillik davrida oʻzbek tilshunosligi taraqqiyoti.

IV. Mustaqil taʼlim va mustaqil ishlar

Mustaqil taʼlimni baholash – bu talabalarining jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qoʻyilgan masalani oʻrganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimoatlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarining soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari toʻliq ochib beriladi.

Mustaqil taʼlim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Tilshunoslik maktablari.
2. Tilshunoslik tarixi.

3. Til va nutq munosabati. 4. Til va tafakkur munosabati. 5. O'zbek tilshunosligi tarixi. 6. Yozuv tarixining piktografik, ideografik, fonografik bosqichlari. 7. Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari. 8. Lingvokulturologiya. 9. Yurilingvistika. 10. Kompyuter lingvistikasi. 11. Psixolingvistika. 12. Yozuv tarixi va uning turlari. 13. Leksikologiya. 14. Mustaqillik davri o'zbek tilshunosligi. 15. O'zbek tilshunos olimlari. 16. Mustaqillik davri o'zbek terminologiyasi. 17. Mustaqillik davri o'zbek leksikografiyasi. 18. O'zbek tilshunosligi muammolari. 19. Yozuv. Alfavit. Orfografiya va uning prinsiplari. 20. Sintaksis. Gap va uning bo'laklari. 21. Tilning grammatik tarkibi. Grammatik kategoriya. 22. O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. 23. Predikativ va nopredikativ bog'lanish. So'z birikmasi. 24. O'zbek tilshunos olimlari va ularning asarlari. 25. Morfologik prinsip. Tarixiy-traditsion prinsip. Maxsus yozuv turlari.	V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - "Tilshunoslik asoslari" fanining tushunchasi, obyekt, predmeti va asosiy prinsiplarini, "Tilshunoslik asoslari" fanining mohiyatini, Tilshunoslik asoslari kursida fonetika, morfologiya, leksikologiya, leksikografiya, sintaksis kabi tushunchalar va ularning grammatik, morfologik funksiyalarini farqlay olishi, gap, uning qurilishi haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim) - Hozirgi o'zbek adabiy tili fanining mohiyatini to'g'ri anglash, fanning bo'limlari haqida bilishi, fonetik, leksik, morfologik, sintaktik, morfemik tahlil qila olishi va ularidan samarali foydalana olishi; (ko'nikma) - Ilmiy adabiyotlarda berilgan grammatik qoidalar va tushunchalarni kelgusida, ijtimoiy jarayonlarda, dars jarayonlarida, mashg'ulotlarda va turli vaziyatlarda qo'llay olish malakalariga ega bo'lishi kerak. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish;
---	---

• individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.
5.	VIII. Asosiy adabiyotlar: 1. Sharipova O'. Tilshunoslik asoslari. Toshkent-2006. Yozilgan yili: 2006 – yil. Bo'limi: o'quv qo'llanma 2. Karimov S. Tilshunoslik nazariyasi. Samarqand -2012. Yozilgan yili: 2020 - yil . Bo'limi: Ma'ruzalar matni 3. Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish. Toshkent-2007. Yozilgan yili: 2007 - yil . Bo'limi: o'quv qo'llanma. 4. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2006. -70 b. 5. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –Toshkent: 1993. 6. Rasulov R., Mo'yidinov Q. O'qituvchi nutqi madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent, 2020 IX. Qo'shimcha adabiyotlar: 1. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1992 2. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish (Ikkinchi nashr). – Toshkent, 2009 3. Yo'ldoshev I. va boshqalar. Mutaxassislikka kirish (Tilshunoslikka kirish). – Toshkent, 2018 4. Mahmudov N. Til. – Toshkent: Yozuvchi, 1998 5. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig'i. – Toshkent, 2012 6. Mahmudov N. Til tilisimi tadqiqi. – Toshkent, 2017 7. Mengliyev B. Tilshunoslikning amaliy masalalari. – Toshkent, 2020 8. Nurmonov A., Yo'ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. – Toshkent: Sharq, 2001 Axborot manbalari http://www.gov.uz http://www.edu.uz www.pedagog.uz www.cspl.uz www.natlib.uz www.ziyounet.uz
7.	O'quv dasturi Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023-yil “29”